
URUSH QATNASHCHISI HOLIDAN XABAR OLINDI

Ajdodlarni xotiralash va keksalarni e'zozlash milliyligimizga xos bo'lgan ulug' qadriyatlardan biridir. Kexsa avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish, nuroniylar holidan xabar olish va ularni qo'llab-quvvatlash Toshloq tumanida davom etmoqda.

Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Shuxratjon Musayevlar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, "Shodlik" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Odiljon ota Zokirov xonadoniga tashrif buyurib, holidan xabar oldilar. Odiljon ota Zokirovga esdalik sovg'alar hamda nogironlik aravachasini topshirdilar.

Urush qatnashchisi Odiljon ota suronli urushda bo'lgan voqealarni ko'zida yosh bilan xotiralar ekan, yurtimizda tinchlik va osudalik hukm surayotganligi uchun shukronalar keltirdi.

2023-05-04 18:00:14